

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO’LISH JARAYONI: O’ZBEKISTON UCHUN YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Xo’janazarov Muhammad

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Email: muhammadxojanazarov@gmail.com

Telefon raqam: +998906456905

Annotatsiya: Maqola O’zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo’lish jarayonini tahlil qiladi. JST a’zoligidan kutilayotgan iqtisodiy yutuqlar, jumladan, xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va mahalliy sanoatni modernizatsiya qilish masalalari muhokama etiladi. Shu bilan birga, JST talablariga muvofiq qonunchilikni muofiqlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta’minlash va qishloq xo’jaligi sektoridagi muammolar kabi qiyinchiliklar ham yoritilgan. Hukumatning JSTga a’zo bo’lish yo’lida amalga oshirayotgan strategik harakatlari va iqtisodiy islohotlari ko’rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O’zbekiston, Jahon Savdo Tashkiloti (JST), a’zolik jarayoni, savdo imkoniyatları, investitsiya muhiti, qonunchilik, raqobatbardoshlik, qishloq xo’jaligi, iqtisodiy islohotlar.

Annotation: The article analyzes Uzbekistan’s accession process to the World Trade Organization (WTO). It discusses the expected economic benefits of WTO membership, including the expansion of international trade opportunities, improvement of the investment climate, and modernization of local industries. Additionally, it addresses challenges such as aligning legislation with WTO requirements, ensuring the competitiveness of local producers, and issues within the agricultural sector. The strategic actions and economic reforms undertaken by the government on the path to WTO membership are also examined.

Keywords: Uzbekistan, World Trade Organization (WTO), accession process, trade opportunities, investment climate, legislation, competitiveness, agriculture, economic reforms.

Аннотация: В статье анализируется процесс присоединения Узбекистана к Всемирной торговой организации (ВТО). Обсуждаются ожидаемые экономические выгоды от членства в ВТО, включая расширение возможностей международной торговли, улучшение инвестиционного климата и модернизацию местной промышленности. Также рассматриваются трудности, такие как приведение законодательства в соответствие с требованиями ВТО, обеспечение конкурентоспособности местных производителей и проблемы в сельскохозяйственном секторе. Рассматриваются стратегические действия и экономические реформы, осуществляемые правительством на пути к членству в ВТО.

Ключевые слова: Узбекистан, Всемирная торговая организация (ВТО), процесс присоединения, торговые возможности, инвестиционный климат, законодательство, конкурентоспособность, сельское хозяйство, экономические реформы.

O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lish jarayonini 1994-yilda boshlagan bo‘lsa-da, ushbu tashabbus yillar davomida to‘xtatib qo‘yilgan edi. So‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohot siyosati doirasida bu jarayon qayta jonlantirildi, va rasmiylar JSTga kirishni 2026-yilda yakunlashni maqsad qilishgan. O‘zbekiston Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish yo‘lida jadal qadamlar tashlamoqda. Bu jarayon mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimga yanada chuqurroq integratsiya qilish, savdo-sotiqni rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi harakatlarini aks ettiradi. Biroq, JSTga a’zo bo‘lish yo‘lida turli yutuqlar bilan birga qator muammolar va sinovlar ham mavjud.

JSTga a’zo bo‘lish O‘zbekistonni iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishi kutilmoqda, jumladan:

Savdo imkoniyatlarini kengaytirish: JSTga a’zolik O‘zbekiston tovarlari va xizmatlariga xalqaro bozorlar eshiklarini kengroq ochib beradi. Bu, o‘z navbatida, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun eksport salohiyatini oshiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkonini yaratadi. Bosh direktor Ngozi Okonjo-Ivealaning ta’kidlashicha, raqobat mamlakat ichidagi korxonalarining samaradorligini kuchaytiradi va yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi, bu ayniqsa yosh avlod uchun muhimdir.

Investitsiya muhitining yaxshilanishi: JSTning xalqaro savdo normalariga amal qilish O‘zbekiston uchun ishonchli va ochiq iqtisodiy muhit yaratadi, chunki JSTga a’zolik har bir nomzod davlat bilan alohida muzokaralar orqali kelishiladi va bu ochiq va adolatli siyosatga asoslangan liberal savdo tizimini yaratish talablarini o‘z ichiga oladi. Bu esa xorijiy investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga qiziqishini kuchaytiradi, chunki JSTga a’zolik huquqiy xavfsizlik va shaffoflikni kafolatlaydi.

Mahalliy sanoatni modernizatsiya qilish: JST talablari bozorni raqobatbardoshlik tamoyillariga moslashtirishni talab qiladi, bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarni texnologik modernizatsiya qilishga va global bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashga undaydi. Shuningdek, JSTga a’zo bo‘lish O‘zbekistonda xalqaro savdo qoidalariga mos ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishni talab etadi. Global savdo bozorlari bilan integratsiya qilish uchun modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish tarmoqlari va energiya samaradorligiga asoslangan texnologiyalarni tadbiq etish orqali, mahsulotlarning sifatini oshirish bilan bir qatorda raqobatbardoshlikni ham kuchaytirish mumkin.

Mamlakatda ishsizlik muammosini qisqartirish: O‘zbekistonda JSTga qo‘shilish orqali ishsizlik muammosini qisqartirish istiqbollari asosan yangi ish o‘rinlari yaratish va yangi sektorlarni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi kutilmoqda. Mutaxassislarining hisob-kitobiga ko‘ra, JSTga qo‘shilish bilan O‘zbekistonda 50 mingdan 100 minggacha yangi ish o‘rni yaratilishi mumkin, bu esa ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, JSTga a’zolik ichki iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga turtki beradi, bu esa,

xususan, kichik va o’rta biznesning rivojlanishiga ko’maklashadi. O’zbekiston hukumati iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini 85 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda, bu esa qo’shimcha ish o’rinlari yaratishga imkon beradi.

Raqamli va “yashil” iqtisodiyot sohalarining rivojlanishi: elektron savdo va xizmatlar eksporti JST talablariga mos holda rivojlantirilishi ham muhim o’rein tutadi, bu esa yana ko’plab yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va raqobat muhitini yaxshilash orqali aholi bandligi oshirilishi kutilmoqda. JST qoidalari va global savdo infratuzilmasiga integratsiya qilish O’zbekistonda raqamli savdo imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron tijorat platformalarini rivojlantirish xalqaro bozorlarda to’g’ridan-to’g’ri savdoni oshiradi. Bu esa, kichik va o’rta korxonalar uchun raqamli savdo vositalari orqali mahsulotlarini eksport qilishni osonlashtiradi va bu borada mamlakat potensialini oshiradi. Bundan tashqari, JSTga a’zo bo’lish “yashil” iqtisodiyotga o’tishni rag’batlantiradi, bu ekologik barqarorlikni oshirish va energiya samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish, masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali O’zbekiston energetika sohasidagi tashqi qaramlikni kamaytiradi. O’zbekiston hukumatining maqsadlaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini JST bilan integratsiya qilishdir. Bu nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki yashil iqtisodiyotda ish o’rinlarini yaratishga ham olib keladi.

Qonun va me’yoriy bazani mustahkamlash: JST talablariga moslashish uchun O’zbekiston intellektual mulk huquqlari, savdo shartnomalari va raqobatbardoshlik qoidalarini mustahkamlaydi va kafolatlaydi. Bu nafaqat xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi, balki ichki islohotlarni ham jadallashtiradi.

Shuningdek, JSTga a’zo bo’lish yo’lida bir qator muammolar ham mavjud. Ular:

Qonunchilikni muofiqlashtirish: JSTning ko’plab qoidalari O’zbekiston milliy qonunchiliginisini isloh qilishni talab qiladi. Jumladan: O’zbekiston intellektual mulkni himoya qilish tizimini kuchaytirish uchun bir nechta harakatlarni amalga oshirishi lozim. Hozirda mamlakatning mualliflik huquqlari va patentlar bilan bog’liq qonunlari JST talablari darajasida emas. Ayniqsa, kontrafakt mahsulotlar savdosi va illegal mahsulotlarining keng tarqalishi muammosi mavjud. JSTning TRIPS bitimi (Intellektual mulk huquqlari bo’yicha savdo jihatlari) talablariga mos ravishda qonunchilikni modernizatsiya qilish talab etiladi. Bundan tashqari, JST a’zoligi uchun O’zbekiston savdo-siyosatining shaffof va oldindan proqnoz qilinadigan bo’lishini ta’minlashi lozim. Bu bojxona amaliyotlari va import-eksport tartiblarini shaffoflashtirish, shuningdek, korrupsiyani kamaytirish kabi islohotlarni o’z ichiga oladi. JST talablariga ko’ra, raqobatni cheklovchi amaliyotlarni qisqartirish va monopoliyaga qarshi kurashish qonunlarini kuchaytirish lozim. Bu ichki bozorni himoya qilish va tadbirdorlikni har tomonlama rivojlantirish uchun muhimdir. Shuningdek, JST standartlariga muvofiq ekologik me’yorlarni yaxshilash, yashil iqtisodiyotga oid qonunchilikni rivojlantirish va ekologik xavfsizlikka oid talablarga rioya qilish global talablar doirasida bo’lishi kerakligi mamlakat oldida turgan muammolardan hisoblanadi.

Savdo va investitsiya sohasidagi mavjud qonunlar ham JST talablariga moslashirilishi lozim, bu esa murakkab va ko’p vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi: JSTga a’zo bo’lish xalqaro kompaniyalarning O’zbekiston bozoriga kirishini osonlashtiradi. Bu esa mahalliy korxonalar uchun raqobat muhitini kuchaytiradi. Bu, o’z navbatida, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga bo’lgan talabni pasaytirishi mumkin. Kam rivojlangan yoki davlat tomonidan subsidiyalangan ishlab chiqarish tarmoqlari qiyin vaziyatga tushib qolish ehtimoli yuqori. JSTga a’zo bo’lish, davlatlar o’rtasida tariflar va kvotalarni pasaytirishni talab qiladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bunday talablarni amalga oshirish uchun o’z ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yoki samaradorligini oshirishga majbur bo’lishadi, bu esa ularning foyda olish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shuningdek, JSTga a’zo bo’lish orqali O’zbekiston xalqaro savdo standartlariga amal qilishi kerak bo’ladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga bu standartlarga moslashish, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport qilish jarayonida sertifikatlash talablarini bajarishdagi o’zgarishlar qo’shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Jahon bozorlarida raqobat qilish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar investitsiyalarni ko’paytirishi va yangi texnologiyalarni joriy etishlari kerak bo’ladi. Ammo bunday investitsiyalarni amalga oshirish uchun ba’zi kompaniyalarda moliyaviy resurslar yetishmovchiligi kuzatilishi va inqirozga duch kelishi mumkin. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun global zanjirda o’z o’rnini topish, yangi bozorlar ochish va raqobatbardoshlikni oshirish juda muhim va bu o’z navbatida yangi texnologiyalar va bilimlarni talab qiladi. Ammo, bu ba’zida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning moslashishida qiyinchiliklar tug’diradi.

Qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi: JST talablari qishloq xo’jaligi sektoriga jiddiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. O’zbekiston qishloq xo’jaligi eksportining xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minalash uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalar joriy etish zarur bo’ladi. O’zbekiston qishloq xo’jaligi sektori hali ham ko’p miqdorda davlat subsidiyalari tayanadi. JST qoidalari davlat subsidiyalarni cheklashni talab qiladi, bu esa fermerlarga qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin. Fermerlar va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar narxlar ustidan to’liq nazoratni yo’qotishi mumkin. JSTga a’zo bo’lish orqali davlat qishloq xo’jaligini jahon bozoriga ochishga majbur qiladi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatga qarshi himoya qilish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli, ayrim rivojlanayotgan davlatlar o’zining qishloq xo’jaligi bozorlarini himoya qilish uchun cheklolvar qo’yishadi. Shuningdek, O’zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda ba’zi muammolar mavjud, chunki mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va xavfsizligini ta’minalash uchun zarur standartlar va tekshiruvlar yetarlicha rivojlanmagan. JSTga a’zo bo’lish, oziq-ovqat xavfsizligi bo’yicha xalqaro talablarga javob berishni talab qiladi, bu esa qishloq xo’jaligi mahsulotlarini eksport qilishni murakkablashtirishi mumkin. Jahon savdo tashkiloti qishloq xo’jaligi mahsulotlariga nisbatan aniq standartlarni belgilaydi. O’zbekistonda hali ham mahsulotlarni xalqaro sertifikatlash tizimlariga muofiqlashtirish bo’yicha muammolar mavjud. Bu esa eksportni cheklashi mumkin, chunki jahon bozorida sifat va xavfsizlik talablariga rioya qilish muhim.

Bundan tashqari, O’zbekiston qishloq xo’jaligi asosan suv resurslariga tayanadi. JSTga a’zo bo’lish jarayonida, qishloq xo’jaligiga ta’sir qiladigan global iqlim o’zgarishi va resurslar taqchilligi masalalari yanada muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Suv resurslari va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish bo’yicha yangi xalqaro shartnomalar ortidan turli cheklovlar kuchayishi mumkin.

O’zbekiston hukumati JSTga a’zo bo’lish yo’lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qator chora-tadbirlar ko’rmoqda. Xususan:

Islohotlarni jadallashtirish: Hukumat JST talablariga muvofiq islohotlarni amalga oshirmoqda, jumladan, savdo tariflari va bojxona siyosatini liberallashtirish, shu jumladan elektron bojxona deklaratsiyalari va raqamli platformalar joriy etish orqali bojxona jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni yaxshilash, mamlakatda erkin va adolatli savdo muhitini yaratish maqsadida xususiy sektorni rivojlantirish, davlat mulkini privatizatsiya qilish va tashqi savdoni liberallashtirishga oid chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ko’mak berish: Raqobatbardoshlikni oshirish uchun mahalliy korxonalarga texnologik qo’llab-quvvatlash va molivaviy yordam ko’rsatish rejasini ishlab chiqilmoqda. Davlat ishlab chiqaruvchilarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun ko’mak bermoqda. JSTga a’zo bo’lish orqali raqobatni oshirish, shu bilan birga mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorlarga moslashishga tayyorlash, ularni o’z mahsulotlarini sifat jihatidan yaxshilashga undash uchun treninglar va maslahatlar tashkil etilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va konsultatsiyalar: O’zbekiston hukumati jarayonni tezlashtirish maqsadida JSTga a’zo boshqa mamlakatlarning tajribasidan foydalanish, shu jumladan JST ekspertlari bilan maslahatlashuvlar va seminarlar o’tkazmoqda.

XULOSA

O’zbekistonning JSTga a’zo bo’lishi mamlakat uchun yangi iqtisodiy va savdo imkoniyatlarini ochishi bilan birga, muayyan qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. A’zolik jarayoni mamlakatning xalqaro savdo va investitsiya tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun muhim qadamdir. Shu bilan birga, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy manfaatlarni himoya qilish va iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish talab etiladi. Shu sababli, hukumat prognoz qilinayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qator chora-tadbirlar ko’rmoqda. Bu choralar O’zbekistonning iqtisodiy integratsiyasini kengaytirishga, investitsiyalarni jalb qilish, mamlakatda barqaror investitsion muhitni barpo etish, yashil va energetik muqobil iqtisodni yaratish va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asian Development Bank (2022) Uzbekistan: Private Sector Development and Economic Diversification. Manila: ADB.

2. FAO (2021) Agricultural Support Policies and WTO Rules: Implications for Uzbekistan. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
3. Ganiev, J. and Yusupov, T. (2020) ‘Trade Liberalization in Uzbekistan: Opportunities and Challenges’, Central Asian Survey, 39(1), pp. 48–66.
4. IMF (2023) Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation. Washington, D.C.: International Monetary Fund.

5. International Trade Centre (2023) Export Potential Assessment: Uzbekistan. Geneva: ITC.
6. Islomov, A. (2021) ‘O’zbekistonda JSTga qo’shilishning huquqiy va iqtisodiy jihatlari’, Iqtisodiyot va Ta’lim, 3(2), pp. 24–31.
7. Ministry of Investments, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan (2023) Uzbekistan’s WTO Accession Progress Report. Tashkent.
8. Okonjo-Iweala, N. (2022) ‘WTO Membership and Inclusive Growth’, World Trade Review, 21(2), pp. 115–130.
9. UNCTAD (2022) Trade and Development Report 2022. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.
10. World Bank (2022) Uzbekistan Country Economic Update. Washington, D.C.: World Bank.
11. World Trade Organization (1994) Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). Geneva: WTO.
12. World Trade Organization (2023) Understanding the WTO. Geneva: WTO Publications.